



## XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 31-iyul

VII-15-163-11-162-K/25

Uchko‘prik tumani

**Uchko‘prik tumanidagi ayrim geografik obyektlarning nomlarini qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida**

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 16-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 20-iyun kunidagi 05-19-100-74-sonli xatini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

### Q A R O R Q I L A D I:

**1. Tuman hokimining** tumandagi ayrim geografik obyektlari nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, (*qabristonlar va ziyoratgohlar*) davlat reyestriga kiritilishi bo‘yicha bildirgan **taklifi** ma’qullansin.

**2.** Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reyestriga kiritilayotgan geografik obyektlarning nomlari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

**3. Tumandagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan** o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda, geografik obyektlarning ro‘yxatdan o‘tkazilgan nomlaridan foydalanishi belgilansin.

**4. Tuman hokimligi matbuot kotibi A.Ermatov** mazkur Kengash qarorini **tuman hokimligi “Yangi Uchko‘prik” gazetasida, shuningdek rasmiy internet-kanallar va ijtimoiy tarmoqlarda** keng yoritish tavsiya etilsin.

**5. Ushbu Kengash qaroridan Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tuman bo‘limiga yuborilsin.**

**6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi M.Mo‘minov zimmasiga yuklansin.**

Sessiya raisi



M.M. Dexqonov

**Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani  
 Kengashining  
 2025-yil 31-iyulndagi  
 VII-15-163-11-162-K/25 -son qaroriga  
 1-ilova**

**Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun  
 hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga  
 muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reyestriga  
 kiritilayotgan tumandagi geografik obyektlarni  
 nomlash bo‘yicha takliflar**

<b>T/r</b>	<b>Geografik obyektning turi</b>	<b>Geografik obyektning bog‘lanishi</b>	<b>Geografik obyektning amaldagi nomi</b>	<b>Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif</b>	<b>Izoh</b>
1	Qabriston	Mashad mahalasi	Nomsiz	Yangi Oqmozorbuva	Xalq orasida Oq kishi mavjud ekanligi aytib kelingan. Ushbu qabristonning nomini shu odam bilan atashgan.
2	Qabriston	Bog‘ibo‘ston mahalasi	Nomsiz	Qo‘qonboy	Qo‘qonboy qabristoni 1976-yillari tashkil topgan bo‘lib, Qo‘qonboy qishlog‘i aholisi tomonidan “Qo‘qonboy” nomi berilgan.
3	Qabriston	Oqsuv mahalasi	Nomsiz	Mamachol	Momachol qishlog‘i nomi bilan hozirgacha yuritiladi. 1700-yilda tashkil topgan.
4	Qabriston	Kichik Kenagas mahalasi	Nomsiz	Kichik Kenagas	Bu qabriston 5 ta qishloqining aholisi uchun mo‘ljallangan. Tarixiy manbalarda bu haqida aniq ma’lumot yo‘q, lekin u yerga qo‘yilgan avliyo, aziz mashhur kishilarining qabrlari bor. Masalan: Xaziyini Eshon buvani qabri, Muhammad Jahongirxon G‘oziy (Qo‘qon xonligini lashkarboshisi bo‘lgan) bular yashagan davri XIX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi.
5	Ziyoratgoh	CHorbog‘ mahalasi	Nomsiz	Xoja Muhammad Valiypirim ziyoratgohi	Xoja Muhammad valiy Shoh Jarir-Poshsho Pirimning imomlari bo‘lgan. Maqbara Farg‘ona vodiysiga xos me’morchilik uslubida bir gumbazli qilib barpo etilgan. 1939-yili Katta Farg‘ona kanali qazilishi chog‘ida akademik M.Ye.Masson

<b>T/r</b>	<b>Geografik obyektning turi</b>	<b>Geografik obyektning bog'lanishi</b>	<b>Geografik obyektning amaldagi nomi</b>	<b>Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif</b>	<b>Izoh</b>
					Xoja Matvali ziyoratgohini ko'zdan kechirgan va o'z xotiralarida mazkur ziyoratgohda o'rta asrlarga mansub chirog'donlar ham mavjud bo'lganligini ta'kidlab o'tgan. Katta qabriston mahalliy xalq tilida "Valiy pirim" mozori deb yuritiladi.
6	Ziyoratgoh	Olmurod mahalasi	Nomsiz	Yigitpirim ziyoratgohi	Ushbu ziyoratgoh haqida o'lkashunos Muhammad Yahyoxon Dadaboyev quyidagilarni bayon etadi. Er Hubbi (Yigit pirim) quadratlilohlardan hisoblanib, Er Hubbi nomi bilan bog'liq joylarda unga sig'inganlar, qurbanlik keltirganlar. Deparaning Olmurod qishlog'i hududidagi bir buloq va uning yonidagi dahma Er Hubbi ziyoratgohi sifatida muqaddaslashtirilgan. Rivoyatga ko'ra, Olmuroddagi Er Hubbi ziyoratgohi u zotning qadamjoylari yoki g'oyib mozorlari bo'lib, ziyoratgohga ayollar farzandlariga sog'salomatlik, umr tilab boradilar. Rasmrusumlarni joyiga keltirgach, buloqqa yaxshi niyat bilan tanga tashlaydilar.
7	Ziyoratgoh	Sariqo'rg'on mahalasi	Nomsiz	Said Jakbar G'ozi ziyoratgohi	Din yo'lida shahid ketgan shaxslar nomiga tiklangan maqbaralarning tipik ko'rinishi. Tarixchilar uni Rumda shahid bo'lgan va dafn etilgan Said Battol G'oziy nomi bilan bog'lashadi. Bu shaxs islom olamida o'z qahramonliklari bilan mashhur bo'lib, islonni tarqalishidagi xizmatlari beqiyos edi. Shu sababli shahidlar dafn etilgan joylarda Said Battol G'oziy yotibdi, deb nisbat beriladi.
8	Ziyoratgoh	Yangiqishloq mahalasi	Nomsiz	Asqar Mahmud ziyoratgohi	Ziyoratgohning nomlanishi tasavvuf tariqatining yirik namoyondasi,

<b>T/r</b>	<b>Geografik obyektning turi</b>	<b>Geografik obyektning bog'lanishi</b>	<b>Geografik obyektning amaldagi nomi</b>	<b>Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif</b>	<b>Izoh</b>
					<p>Naqshbandiya sulukining Farg'ona vodiysi shayxlardan biri Shayx xo'ja Asqar Mahmud (1084-1085 (milodiy 1673-1674 yillar )shaxsi bilan bog'laydilar. U Qo'qon shahrida tug'ilib, keyinchalik hozirgi ziyoratgoh joylashgan "Keng soy" qo'rg'onchasi ko'chib keladi va hashar yo'li bilan uy, masjid quradi. Vafotidan so'ng vasiyatiga ko'ra hujrasiga dafn etilib, mazkur joy ziyoratgohga aylanadi.</p>
<b>9</b>	Ziyoratgoh	Kichik Kenagas mahalasi	Nomsiz	Ziyovuddinxon Doniyolxon Xazrat Haziniy ziyoratgohi	<p>Uchko'priq tumani Katta Kenagas qishlog'ida shoir Ziyovuddin Haziniy (1867-1923) dahmasi ziyoratgohi joylashgan. Bu yerda shoir avlodlarining xilxonasi, xususan, Haziniyning bobolaridan biri Nabiraho'ja maqbarasi hamda chillaxona alohida o'rinn tutadi. 2018-yilda Ziyovuddinxon Doniyolxon (Katta xo'ja) o'g'li Haziniyning maqbarasida kapital rekonstruksiya va obodonlashtirish ishlari olib borilgan.</p>
<b>10</b>	Ziyoratgoh	Yakkatut mahalasi	Nomsiz	Umarali Eshon ziyoratgohi	<p>Ziyoratgoh Qo'qon xonligi davrida yashab o'tgan tasavvufdag'i "Naqshbandiya" suluki namoyondalaridan biri Umarali Eshon Abubakr Eshon o'g'li (Milodiy 1808-1888-yillar) shahsi bilan bog'liq. Bundan tashqari mazkur mozor o'tmishda "tutmozor" deb atalgan. Bu mozor yonida ming yillik tut bo'lib, yetti xil tut mevasini beradi.</p>